
Rishton tumanida «Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki» shiori ostida umumxalq hashari bo'lib o'tmoqda

Ma'lumki, Respublikamizda «Navro'z» umumxalq bayramini munosib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish tadbirlari doirasida 16-18 mart kunlari «Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rki» shiori ostida umumxalq xayriya hasharlari tashkil etilishi belgilangan.

Ayni paytda esa Rishton tumanidagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlari o'ramida ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Mahallalar, ta'lim muassasalari, turli tashkilotlar, aholi yashash xonadonlari, ko'p qavatli uylar atroflari, guzar va xiyobonlar, ziyyaratgoh va qabristonlarda ishlar tashkil etilmoqda.

2024-03-16 13:49:35